

# THE PROGRESS OF SCIENCE JOURNAL



## Oila psixologiyasida oilaviy munosabatlar psixologiyasi

Психология семейных отношений в семейной психологии

The psychology of family relationships in family psychology

**Esemuratova Gulbanu Sultanbek qizi**

Qoraqalpoq Davlat Universiteti

Amaliy Psixologiya 4-kurs talabasi

[esemuratovagulbanu@gmail.com](mailto:esemuratovagulbanu@gmail.com)

+998934861835

**Turdimurayova Sofiya Baxtiyar qizi**

Qoraqalpoq Davlat Universiteti

Amaliy Psixologiya 2-kurs talabasi

[sofyaturdimuratova@gmail.com](mailto:sofyaturdimuratova@gmail.com)

+998979689699

**Esbosinova Sarbinaz Muratbaevna**

Qoraqalpoq Davlat Universiteti

Amaliy Psixologiya 2-kurs talabasi

[sarbinazesbosinova@gmail.com](mailto:sarbinazesbosinova@gmail.com)

+998937079963



**Annotaciya:** Ushbu maqolada oila qurilgandan song yoshlar o’rtasidagi munosabatlar va ularning rivojlanishi haqida malumotlar keltirildi.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация об отношениях между молодыми людьми и их развитии после образования семьи.

**Annotation:** This article provides information about the relationship between young people and their development after the formation of a family.

**Kalit so’zlar:** oila, munosabat, nikoh, oilaviy munosabatlar, sevgi, konflikt.

**Ключевые слова:** семья, отношения, брак, семейные отношения, любовь, конфликт.

**Key words:** family, relationship, marriage, family relations, love, conflict.

Yosh oilalarda er-xotin munosabatlari o‘ziga xos hududiy, etnik, jinsiy, yosh va individual psixologik xususiyatlarga ega bo‘lgan er-xoiin munosabatlari shakllanishining eng nozik va hal qiluvchi shakli hisoblanadi. U yoki bu yosh oilaga xos bo‘lgan er-xotin munosabatlari boshqa bir er-xotinga mos kelmasligi mumkin. Chunki yosh oilani yuzaga keltirgan er-xotinlar turli xil shaxslararo munosabatlar tizimi, turlicha taomilga ega bo‘lgan oilalarda tarbiyalangan, shaxs sifatida shakllangan individlardan tashkil topadi. Lekin shunga qaramasdan maxsus psixologik tadqiqotlarda va ulardan olingan natijalar asosida yozilgan ilmiy psixologik adabiyotlarda yosh oilalarda er-xotin munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishining umumiylar mehanizmlarga oid tegishli ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Umuman yosh oilalarda er-xotin munosabatlarining qay tarzda rivojlanishi avvalo shu yosh oilaning yuzaga kelishiga asos bo‘lgan nikoh oldi omillarining xarakteriga, shu oilalarning yuzaga kelish shart-sharoitlari bilan uzviy bog‘liqdir.

Inson oila qurar ekan ahil-inoq yashab, murod-maqsadga yetishishni orzu



qiladi, nikoh arafasida va nikoh kechasi ham barcha yaqin birodarlar, qarindoshlar, to'yga taklif buyurgan mehmonlar yoshlarga ezgu niyatlar bildiradilar. Shuningdek, yoshlar oila qurish arafasida va nikohlarining dastlabki kunlarida turmush o'rtog'i timsolida, o'zining shu orzu-istiklariga, murod-maqsadlariga yetishishda yordam beruvchi, uni qo'llab-quwatlovchi, uni har soniya, har onda tushunuvchi o'z tabiatiga yaqin odamini tasavvur qiladi va unga imkon qadar shunday ijobiy, iliq munosabatda bo'lishga harakat qiladi.

Er-xotinlarning oiladagi muloqoti, shaxslararo muioqotning umumiyligi qonuniyatlariga bo'y sunish bilan birga, dastavval ishdan tashqari, bo'sh vaqtlarini birgalikda o'tkazish bilan shartlangan o'ziga xos xususiyatlariga ham ega. Hamkasblar, o'rtoqlar, do'stlar va sevishganlar hamma vaqt ham birga bo'lish imkoniyatiga ega emaslar, qaytanga, o'z muloqotlarini o'zlari xohlagan vaqtlarida biroz kamaytrib, hatto uzib (to'xtatib) qo'yishlari ham mumkin (uchrashuvga borishi lozimligini «*unitib*\* qo'yish, kutilmaganda «*juda band*» bo'lib qolishi mumkin va sh.k). Er-xotinlar esa ko'pincha bunday imkoniyatlardan mahrumdirlar. Ular bir xonadonda, ko'pincha bir xonada birga bo'lishga «*mahkum*» etilgan. Albatta, bu gaplar ko'pchilik yoshlарimizda (ayniqsa, bir-birlarini sevuvchi yoshlarda) tushunmovchilik, ishonmaslik, e'tiroz tug'dirishi mumkin, chunki ular, o'zing uchun aziz, sevimli bo'lgan odam bilan birga bo'lish, uning yonida bo'lish «*majburiyati*» bu eng orziqib kutilgan orzuning ro'yobga chiqishiku deb hisoblashlari mumkin. Biroq bu «*mahkumlik*» bilan hisoblashmaslik ham mumkin emas. Turli aholi turar joylarida, mahallalarda, qo'ni-qo'shnilar o'rtasida ko'pincha faqat ayollardan yoki faqat erkaklardan iborat «kompaniyalar» ham behudaga yuzaga kelavermaydi.



Doimiy muloqot bir xillik ko‘rinishini yuzaga keltiradi, tabiiyki, bundan hayotdagи kundalik ikir-chikirlar ko‘payadi, ayni vaqtda chuqur hissiyotlar o‘z obyektining yaqinligi tufayli kundalik odatlar shaklini oladi, Odamlar birlaridan biroz muddat ayri yashashsa hammasi joyiga tushadi: muhim to‘siqlardek tuyulgan narsalar arzimagan mayda-chuydalarga aylanib qoladi, qisqa muddatli hijron ta’sirida chuqur hissiyotlar kuchayadi va yana o‘ziga yarasha kuchga ega bo’ladi.

Shunday qilib, eng ezgu niyatlar bilan oila qurgan yoshlarda er-xotinning shaxsiy munosabatlari baxtga qarshi yaxshidan yomonga qarab rivojiana boshlaydi. Chunki nikohning boshida kuzatiladigan er-xotin o’rtasidagi ko’tarinki emotsional yaqinlik asta-sekinlik bilan pasayib, ular hissiyotlarining o‘tmaslashuvi ro‘y beradi. Bu holatlar albatta har qanday oilada shaxslararo munosabatlar rivojlanishining o‘ziga xos dinamikasini tashkil qiladi. Bu holatdan voqif bo‘lish va uning o‘zgarishlariga tayyor turish yosh oilalarda yuzaga kelishi mumkin bo’lgan ayrim ko’ngilsizliklarning oldini olishga asos bo‘ladi.

Oilaviy munosabatlarni chuqur o’rgangan holda ularni yoshlarga asta-sekinlik bilan o’rgatib borish zarur. Oddiy munosabatlardan tortib murakkablarigacha ularni o’rgatish mumkun. Oliy ta’lim muassasalarida esa ularni keng doirada talabalarga “Oila psixologiyasi” fani sifatida o’qitish imkoniyati mavjud. Bu fan orqali ularga munosabatlarning qanday rivojlanishini tushuntirish, oila qurgandan song eng daslabki munosabatlarda shoshma-shosharlik qilin oila buzilishlarining oldini olish mumkin bo’ladi. Va albatta yurtimizda faoliyat yurituvchi psixolog olimlar zamon rivojlanishining jadallagini hisobga olgan holda “Oila psixologiyasi” darsligidagi ma’lumotlarni yangilar, har yili to’ldririb



turishlari maqsadga muvofiq dep hisoblayman.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.G'.Shoumarov “Oila psixologiyasi”; T., - 2008;
2. Karimova V.M. Akravova F.A. “Psixologiya”,. T., - 2000;
3. B.M.Каримова “Оила психологияси” дарслик, Т., - 2007.